

O‘QUVCHILARDA MUSIQA IDROKINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

A’zam Abduraximov,

JDPI Musiqa ta’limi

kafedra o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarning badiiy-estetik didini shakllantirishda musiqa idrokini rivojlantirishning xususiyatlari va ularni amalga oshirish yo‘llari haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Idrok, faoliyat, ritm, obraz, malaka, ko‘nikma, ohang, lad, metro-ritm, temp, dinamika, registr, faktura, ko‘povozlik, shakl, garmoniya, janr, shakl.

Umumta’lim maktablarida musiqiy ta’limning muhim vazifalaridan biri – o‘quvchilarda musiqani idrok etish malakalarini o‘stirish, unga emotsional munosabatni shakllantirishga erishishdir. Bu jarayon darsdagi musiqiy faoliyatlarning barcha turlari asosida amalga oshiriladi. Masalan, qo‘shiqni o‘rganish uchun uni, avvalo, eshitish, kuyning sof ohangiga, musiqiy rivojiga quloq solish; musiqaga cholg‘ularda ritmik jo‘r bo‘lishda, raqs harakatlarini bajarishda uning o‘zgarishini his etib, asarga o‘z munosabatini ko‘rsata olish muhimdir.

Shu bilan bir qatorda musiqa idroki darsdagi faoliyatlarning mustaqil turlaridan biridir. Metodik adabiyotlarda musiqa idroki musiqa tinglash deb yuritiladi. Bunda o‘quvchilar o‘zlari ijro eta oladiganga nisbatan ancha murakkab asarlar bilan tanishadilar. Bunday asarlarni tinglash jarayoni faqatgina musiqa bilan tanishuvdan iborat bo‘lmasligi lozim. *Musiqa idroki* – musiqa mazmunini (musiqiy obrazni) eshita bilish va hissiy kechinmalari asosida o‘zlashtirishdir.

O‘quvchilarda musiqiy idrokni rivojlantirish – ularni musiqani, insonning hissiyotlari, kechinmalari, fikrlari, hayotiy g‘oya va obrazlarni aks ettiruvchi san’at sifatida qabul qilishga o‘rgatish demakdir. Buning uchun esa ularda musiqaga hissiy ta’sirchanlik, qiziqishni o‘stirish, musiqiy ijodiy qobiliyatlar, didni

rivojlantirishga qaratilgan malaka va ko'nikmalarni shakllantirish talab etiladi. Mazkur malaka va ko'nikmalarning shakllanishi bola ongining uzoq rivojlanish jarayonini talab etadi. Badiiy qiymatga ega asarlar hamda musiqa tinglash jarayonining faol bo'lishi o'quvchilarda musiqiy didni tarbiyalashning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Musiqiy idrok – murakkab psixologik jarayon bo'lib, uning asosida real borliqning obrazlar orqali musiqiy tovushlarda aks etishini eshita olish va undan ta'sirlanish qobiliyati yotadi. Musiqiy asar olamiga «kirib borish», musiqa kayfiyatini his etish, g'oyasini tushunib yetish tinglovchining o'ziga xos ijodiy faoliyati tufayli ro'y beradi.

Musiqa insonga o'zining ifoda vositalari – ohang, lad, metro-ritm, temp, dinamika, registr, faktura, ko'povozlik, shakl, garmoniya va h.z. kabi «bo'yoqlari» uyg'unligida ta'sir etadi. Bu ifoda vositalari asarning kayfiyati, go'zalligi, mazmuni va g'oyasini tinglovchiga yetkazib beradi. Ammo musiqani tushunish, ya'ni uni nafaqat hissiy qabul qilish, balki ong bilan ham tushunish, musiqa nimani ifodalayotganligi va qanday ifodalayotganligini his etish, musiqa bilan muloqatda bo'lishga ehtiyoj sezish insondan badiiy saviya, musiqiy, hayotiy tajriba talab etadi. Shuning uchun musiqashunoslar musiqa tinglash aqlning kuchli faoliyati va o'ziga xos ijoddir deb ta'kidlaydilar.

Idrok masalalari, xususan musiqa vositasida uni rivojlantirish muammolari ko'plab bolalar bilan ish olib borgan musiqashunoslar, psixologlar va pedagog olimlarning izlanishlari asosini tashkil etadi. Musiqashunos B.L.Yavorskiy «Musiqani idrok qilish asosida fikrlash, musiqani «ma'noga ega nutq» sifatida qabul qilish malakasi yotadi», deb ta'kidlaydi.

O'quvchilarda musiqa idrokini shakllantirish xususiyatlari shundan iboratki, musiqa insonga ta'sir etar ekan, uni quvontiradi, hayajonlantiradi, o'ziga qiziqish uyg'otadi. Inson tuyg'ularining barcha ko'rinishlari – quvonch va qayg'u, baxt va dard-alam musiqada aks etishini bolalar eshitishlari, anglashlari va his etishlari uchun o'qituvchi barcha shart-sharoitlarni hosil qiladi, bolalarning musiqa bilan muloqoti quvonchli bo'lishi uchun turli vositalar qo'llaydi. Bu esa ko'proq darsda

qo‘llaniladigan musiqiy asarlarga bog‘liq. Asarlar badiiy qiymatga ega bo‘lishi, obrazli, qiziqarli, mazmunan bolalarga yaqin, tili jihatdan mos bo‘lishi, bolalar ehtiyojlariga javob berishi kerak. Shu bilan birga, o‘quvchilarga tinglash uchun musiqiy material havola etilayotganda ularning tinglash diqqati hajmi e‘tiborga olinishi lozim. 6-7 yoshli bolalar 1-1,5 minut musiqani turg‘un diqqat bilan tinglaydilar, uchinchi-to‘rtinchi sinf o‘quvchilari 4–4,5 minut jaranglaydigan musiqiy obrazni idrok etishlari, o‘smirlar esa 15-17 minut diqqat bilan asar tinglay oladilar.

Har bir bolaning qiziqishi uning ichki dunyosiga mos bo‘ladi. Ma‘lum bir yoshdagi bolalarni alohida qiziqishlari birlashtiradi.

7-8 yoshdagi kichik maktab o‘quvchilari quvnoq, sho‘x musiqani qahramonlik, o‘yin mavzusiga bag‘ishlangan asarlarni qiziqish bilan eshitadilar. Ularni aniq, yorqin obrazli, poetik mazmunga, sho‘x usulga, oddiy til va shaklga ega bo‘lgan asarlar qiziqtiradi. Masalan, «Oq terakmi, ko‘k terak», «Asp bo‘laman», «Dilxiroj», «Chitti gul», «Chamanda gul», «Choriy chamber», «Kovushim» (xazil qo‘shiq), «Laylak keldi» kabi ko‘plab xalq ijodi namunalari, «Kapalagim», «Archa bayrami» (N. Norxo‘jaev), «Bolalar va g‘ozlar» (D. Najmitdinov), «Yomg‘irjon» (S. Abramova), «quvnoq doira» (B. Gienko), «qo‘g‘irchoq soldatchalar marshi» (P. Chaykovskiy) kabi asarlar shu yoshdagi o‘quvchilarga yaqin.

Bolalar asarning *janr xususiyatlarini* – marsh, qo‘shiq-raqs yengil o‘zlashtiradilar. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarni musiqa janri namunalari bilan tanishtirishda janrning faqatgina xarakterini aniqlamasdan, janr xususiyatlarini ham ko‘rsatib berishga harakat qilishi lozim. Buning uchun bolalarga pesalarni taqqoslash va ulardagi umumiylikni topish vazifalari beriladi. Masalan, «Yurish marshi» (F. Nazarov), «Bayram marshi» (D. Zokirov), «Usmoniya» (xalq kuyi), «Futbol marshi» (M. Blanter), «Yog‘och soldatchalar marshi» (P. Chaykovskiy) namunalarida bolalar marsh musiqasining hayotdagi o‘rni hamda ularning xilma-xilligini bilib oladilar. Ko‘rsatilgan marshlarning hammasi o‘z kayfiyatiga ega va ularni umumlashtirib turuvchi xususiyat –

hammasida qadam harakati, aniq usul (pulsatsiya) borligi, qadamlar harakati tez, yengil, chaqqon yoki og'ir, shaxdam, ulug'vor, tantanavor bo'lishi marshning kayfiyatidan kelib chiqishini bilib oladilar.

Xuddi shu yo'sinda raqs va qo'shiq janr xususiyatlarini ko'rsatib berish mumkin.

Asarning janr xususiyatlarini o'rgangandan so'ng bolalarni musiqadagi *ifodaviylik va tasviriylilik* tushunchalariga olib kelish mumkin.

Avvalo o'quvchilarga musiqiy obrazning *ifodaviyligi* ko'rsatiladi. Musiqa sho'x, quvnoq, g'amgin, mayin, nozik, tantanavor, hazil, beg'amlik, ma'yuslik, dard kabi turli kayfiyatlarni ifodalashi ko'plab asarlar misolida ko'rsatilishi mumkin (I. Akbarov «Alla»si, A. Mansurov «qo'zichog'im-o'yinchoq»i, P. Chaykovskiyning «Kasal qo'g'irchoq» asari, «Lazgi», «Paxtaoyning bayrami» va boshqalar).

Shundan so'ng bolalarda tabiat manzaralari va harakat aks etgan asarlar yordamida musiqaning *tasviriyligi* haqidagi tushunchalar shakllantiriladi (S. Abramova «Yomg'irjon», R. Shuman «quvnoq chavandoz», B. Gienko «quvnoq doira», G. Mushel «Ertak», I. Akbarov «Karvon», A. Rouli «Vesyoliy gnom» va h.k.)

9-11 yoshli o'quvchilarni ko'proq musiqada o'tgan davr va hozirgi zamon qahramonliklari mavzusi, xalq ijodi, turli xalqlar musiqasi qiziqtiradi, kompozitorlar ijodi, xalq qahramonlari aks etgan asarlar kasb etadi. Musiqaning ifoda vositalari - sur'at, dinamika, registr, lad haqida tushunchalarga ega bo'ladilar. Oddiy musiqa shakllari bilan tanishadilar. Asta-sekin musiqa takrorlanish, tafovut, variantli o'zgarish asosida rivojlanishi haqida tasavvur hosil qiladilar.

O'quvchilarga musiqiy obrazning rivojlanishini tushuntirish maqsadida uning grafik yozuvidan foydalanish mumkin. Masalan:

- oddiy uch qismli shaklda musiqiy obrazning rivojlanish yo'li shunday ifodalanadi:



Oddiy musiqa shakllarini o'zlashtirgandan so'ng bolalar variatsiya, rondo, syuita kabi musiqa janrlari bilan tanishadilar. Bunda ham chizma yaxshi yordam

beradi. Variantlik asosida musiqaning rivojlanishini ifodalash uchun bir turdagi shaklchalarning turli rangdagi ko‘rinishini keltirish mumkin:



O‘smirlarda insonning ichki murakkab dunyosi his-tuyg‘u, kechinmalari, sevgi-muhabbat obrazlari, qahramonlik va satira kabi jiddiy muammolar aks etgan asarlar, buyuk musiqa ijodkorlari hayoti qiziqish uyg‘otadi. Uslubi, janri, shakl-hajmidan qat’iy nazar muhim ijtimoiy mavzular, masalan, chuqur falsafiy g‘oyalar, orzu va baxt-saodat uchun kurash, ilk muhabbat dardi, sog‘inch kabi insoniy his-tuyg‘ular ifodalangan musiqa o‘smirlarga katta hissiy ta’sir o‘tkazadi va ularni jiddiy fikrlashga undaydi. Musiqiy idrokni rivojlantirishning muhim bosqichlaridan biri - o‘smirlarda musiqiy dramaturgiya haqida tushunchalar, tasavvurlar hosil qilish. Bu tasavvurlar asosan yirik shaklli musiqa asarlari bilan tanishish jarayonida hosil qilinadi. Dasturga kirgan T.Qurbonovning «Shiroq» baleti, Ulug‘bek Musaevning «To‘maris» baleti, T.Jalilovning «Tohir va Zuhra» operasi, S.Yudakovning «Mirzacho‘l» vokal-simfonik syuitasi, Betxovenning «Qahramonlik», V.A.Mosartning «40» simfoniyalarini tinglab o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilar bu asarlarda aniq ifodalangan musiqiy obrazlar va ularning to‘qnashuvlari, ziddiyatlari, kurashlari orqali ijodkorlar murakkab hayot janrlari, insonlar xarakteri, dramalari, katta g‘oyalarni aks ettirganlarini bilib oladilar.

Mazmuni murakkab bo‘lgan yirik musiqa asarlarini diqqat bilan tinglash, asarning g‘oyasini tushunishga o‘rgatish o‘qituvchidan mahorat kasb etadi. Shu bilan birga har bir o‘quvchi o‘zining shaxsiy va musiqiy tajribasidan kelib chiqqan holda, musiqiy-ijodiy qobiliyatlariga qarab musiqani idrok etadi.

O‘quvchilarda musiqa tinglash, musiqa idroki, malakalarini rivojlantirish bir qancha qonuniyatlarga asoslanadi:

1.O‘quvchilarni musiqani diqqat bilan tinglashga, musiqa «oqimini» kuzatishga o‘rgatish lozim. Tinglash faol bo‘lishi uchun uni tashkil etish va boshqarish talab etiladi.

2.Musiqa tinglash maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

3. Bolalarda musiqaga nisbatan hissiy munosabatni shakllantirish. Buning uchun darsda qo'llaniladigan asarlar badiiy jihatdan yetuk bo'lishi, yorqin obrazli, qiziqarli, mazmunan bolalarga yaqin, bolalar ehtiyojlariga javob berishi lozim.

4. Berilayotgan material bolalar yoshiga mos bo'lishi va puxta o'zlashtirilish kerak. Puxta o'zlashtirilgan asargina musiqiy dunyoqarashni kengaytiradi, didni shakllantiradi, idrokni rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'quvchilarda musiqa idrokini rivojlantirish o'qituvchidan turli metod va usullardan oqilona foydalanishni talab etadi. Musiqa qonuniyatlari, musiqa san'ati xususiyatlari oddiy janrlardan murakkablariga qarab bosqichma-bosqich o'zlashtirilishi ta'minlanishi musiqaning tarbiyaviy ta'sirini kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.A.Karimov. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. «O'zbekiston», Toshkent, 1992.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T: O'zbekiston. 2016yil.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T: O'zbekiston. 2017yil.
4. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent-1977.
5. Barkamol avlod orzusi. Toshkent, "Sharq" nashriyoti matbaa konserni bosh tahririyati. 1999.
6. O'zbekiston Respublikasi davlat "Maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida" gi qonun. T., 2007.
7. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. T., 2012.
8. "Maktabgacha ta'lim to'g'risida" gi konsepsiya. T., "Fan va ta'lim" 2011.

9. "Bolajon" tayanch dastur. – T., "M-m"., 2010.
10. Ikromova M, Raximov X, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun xalq qo'shiqlari va raqslar. T., O'qituvchi., 1992.
11. Qodirova F., va bosh. Maktabgacha pedagogika. T., Ma'naviyat. 2013.
12. Keneman A.B., Xuxlayeva D.V. maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash nazariyasi va metodikasi. T., O'qituvchi 1988. 292-b.
13. Tulenova X., va bosh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. (1-2 tom) T. "I-M"., 2012. 512-b.